

Bayram dasturxoni

Joriy yil 13-yanvar kuni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti rektori O'.Umurzakov tashabbusi bilan institut talabalar turar joylarida yangi yil bayram xayriya dasturxoni tashkil etildi va talabalarga bayram munosabati bilan osh tarqatildi.



Ushbu bayram oshida qishki ta'tildan qaytgan "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti talabalari ham faol qatnashdi. Tadbir juda qiziqarli va maroqli bo'lib o'tdi. Bu tadbirdan fakultetimiz talabalar turar joyida istiqomat qiladigan talabalarimiz juda ham xursand bo'lishdi va institut rektori xamda kasaba uyushmasining raisiga o'z minnatdorchiliklarini bildirishdi.



TIQXMMI matbuot xizmati